

# **60 dan ziyod tadbirkorning muammolari tinglandi**



Surxondaryo viloyati hokimligida xususiy sektor vakillarini o'ylantirayotgan muammolarni hal etish hamda yangi istiqbolli g'oyalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida navbatdagi "Tadbirkorlar qabuli" bo'lib o'tdi.

Qabulda viloyat hokimi To'ra Bobolov, Biznes-ombudsman o'rinnbosari Jamshid Urunov, viloyat hokiminining birinchi o'rinnbosari, tijorat banklari rahbarlari, tegishli korxona va tashkilot hamda shahar, tuman hokimlarining o'rinnbosarlari ishtirok etdi.

Qabulda viloyatimiz shahar va tumanlaridan 63 nafar tadbirkor o'zini qiyayotgan masalalar bo'yicha murojaat qildi. Ushbu murojaatlarning 11 tasi joyida hal etilgan bo'lса, yechimi ma'lum vaqt talab etadigan 52 ta masalalar bo'yicha tegishli mutasaddilarga aniq vazifalar yuklatildi.